




**Viloyat statistika boshqarmasining 2025-yil I-yarim yillik faoliyati
natijalariga bag'ishlangan kengaytirilgan Kengash yig'ilishi**

BAYONI № 3

2025-yil 23-iyul

Samarqand sh.

Raislik qiluvchi: -Sh.A.Abdiyev – Viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i

Qatnashdilar: -Boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari, tarmoq va tuman (shahar) statistika bo'lim boshliqlari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI

1. Kirish so'zi

2. Statistika boshqarmasi tizimida 2025-yilning I-yarim yilligida statistika faoliyatini tashkil etish ishlari samaradorligi to'g'risida.

3. Boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2025-yilning 1-yarmida erishilgan ijobiy natijalar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar to'g'risida.

4. Boshqa masalalar.

(Sh.Abdiyev, J.Ulashev, M.Salimov, tarmoq va tuman, shahar statistika bo'limlari boshliqlari, Sh.Abdiyev)

Boshqarmaning Kengash yig'ilishida 2025-yilning I-yarim yilligida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hijjatlari bilan tizimga berilgan topshiriqlarning boshqarmadagi ijrosi yakunlari ko'rib chiqildi.

Yig'ilishni boshqarma boshlig'i Sh. Abdiyev ochiq deb e'lon qilgan holda kun tartibidagi masalalar yuzasidan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi hamda joriy yilning 18-iyul kuni Milliy statistika qo'mitasida kengaytirilgan Hay'at yig'ilishi juda qattiq tanqidiy tarzda bo'lib o'tganligini, shaxsan qo'mita raisining o'zi tizimdagi kamchilarni ko'rsatib berganligini takidhladi. Jumladan:

-test sinovlaridan o'ta olmagan xodim qayta ishga olinmasligini, ularning o'rniga yangi salohiyatli kadrlarni tanlash lozimligini;

-har bir vakant lavozimga kamida 10 ta yaxshi yosh bilimli xodimlardan nomzodlar topish kerakligini;

-konsalting xizmati ko'rsatishdan tushgan tushumlarni joriy yilning 1-iyulidan boshlab qo'mita tomonidan qabul qilingan TARTIBGA asosan taqsimlanishini;

-korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha barcha xodimlar yana bir bor ogohlantirilib, kerak bo'lsa seminarlar tashkil etilishi lozimligini;

-viloyat bo'yicha 472 ta holatda tizim kompyuterlaridan foydalanib hisobot jo'natish holatlari kuzatilganligini;

-kelgusida qaysi kompyuterda xizmatda foydalanishdan tashqari ERI kalitlari aniqlanganda mas'ul xodim to'g'ridan-to'g'ri ishdan olinishi lozimligi;

-har bir bo'lim, har bir xodim bo'yicha xizmat tekshiruvi o'tkazilishini, bunda qarindosh-urug'chilik, ishga mas'uliyat bilan yondashmagan xodimlarning bo'lmasligi choralarini ko'rish kerakligi;

-konsalting tushumlari bo'yicha chuqur tahlil qilinib, belgalangan qo'shimcha rejalarni bajarish shartligi, keyingi 3 yillik tushumlar solishtirilib, chuqur tahlil qilingan holda yangi imkoniyatlarni aniqlash va uni amaliyotda qo'llab, tushum hajmini oshirish choralarini ko'rish kerakligi;

-xodimlar yillar davomida bir xil vazifani bajarib kelgan, hamma barcha ishlarini bajara olishi kerak. Vazifalar taqsimotini qaytadan ko'rib chiqish lozimligi;

-barcha kuzatuvlarni joyiga chiqqan holda kuzatilayotganligini nazorat qilish uchun planshetlarga GPS o'rnatilib xodimning harakati kuzatib turilishi kerakligini aytib o'tdi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning mamlakatni rivojlanishidagi hissasini tavsiflovchi statistik materiallarni chuqur kompleks tahlili uchun statistika organlarining roli va javobgarligini oshirish hamda statistika sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, tizimda transformasiya jarayonlarini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni va "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-75-son Qarori ijrosiga muvofiq, amalga oshirilayotgan, erishilgan natijalar hamda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar batafsil muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-fevraldagi 100-son qarori bilan tasdiqlangan 2025-yil uchun statistika dasturiga muvofiq joriy yilning yanvar-iyun oylarida jami 541 ta statistika ishlari belgilangan muddatlarda va to'liq hajmlarda bajarildi.

Hisobot davrida Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari bo'yicha statistika ma'lumotlari (axborotnoma, byulleten, to'plam va boshqa nashrlar) tayyorlanib, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasiga, viloyat hokimligi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, viloyat prokuraturasi hamda boshqa taaluqli tashkilotlarga taqdim etildi.

Statistika dasturiga muvofiq bajarilgan ishlar natijalariga ko'ra shakllantirilgan ochiq statistika ma'lumotlari, axborotnomalar, to'plamlar, press-relizlar ko'rinishida hamda ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlari orqali muntazam ravishda foydalanuvchilar e'tiboriga yetkazib berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi "“ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PQ-5132-son qarorida belgilangan vazifalarning so'zsiz ijrosini ta'minlash, ijro intizomini yanada mustahkamlash bo'yicha boshqarma tizimida zarur choralar ko'rilmogda.

2025-yilning I-yarim yillikda boshqarmaga 576 ta hujjat kelib tushgan. Shundan, 295 tasi yuqori turuvchi tashkilotlardan, 265 tasi korxona va tashkilotlardan hamda 16 tasi XDFU hujjatlardan iboratdir. Ushbu korrespondensiyalar “edo.ijro.uz” dasturiga kiritilgan, ijrosi kunlik nazoratga olingan.

Boshqarmaga 2025-yil I-yarim yilligida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarning jami soni 73 tani tashkil etib, ularning 12 (16,5 %) tasi jismoniy shaxslar, 61 (83,5 %) tasi yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri keldi.

Shundan, 3 ta murojaat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 3 tasi elektron pochta orqali, 41 tasi og'zaki, 26 tasi to'g'ridan - to'g'ri kelib tushgan murojaatlardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-81-son Qarori bilan belgilab berilgan vazifalar ijrosi bo'yicha tegishli tadbirlar o'z vaqtida amalga oshirib kelinmogda.

Xodimlarni korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatini shakllantirish maqsadida viloyat bo'yicha 24 ga yaqin seminar trening va huquqiy targ'ibotlar o'tkazildi. Mazkur davr mobaynida seminar treninglarda 624 nafar xodimlar huquqiy targ'ibotlarda ishtirok etdilar.

Ushbu davr mobaynida 102 nafar xodimdan “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi O'RQ-931-son Qonuniga asosan deklaratsiyalari olinib tahlil qilindi.

Kengash yig'ilishida, sohada qonunchilikni ta'minlash, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash, statistik tahliliy ishlarini tashkil etish, ijro nazoratini mustahkamlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, kiberxavfsizlikni ta'minlash, moliya-xo'jalik faoliyatini tashkil etish, kadrlar bilan ishlash va ularning malakasini oshirish masalalari yuzasidan tizim organlarining hisobot davridagi faoliyati tanqidiy tahlil etildi.

Xususan, tarmoq bo'limlari va hududiy statistika bo'lim rahbarlarining hisobotlari eshitilib, kamchiliklarga yo'l qo'ygan rahbarlarning shaxsiy javobgarligi belgilandi va mazkur yo'nalishlarda ishlarni yanada faollashtirish hamda nazorat ishlarini kuchaytirish yuzasidan aniq vazifalar topshirildi.

Shu bilan birga, yig'ilishda statistika faoliyatini tashkil etish, hududiy organlar faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog'liq hamda Kengash vakolatiga kiruvchi tegishli masalalar ham muhokama etilib, bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi.

Kengash yig'ilishi kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil 25-iyulda tasdiqlangan 4-sonli Hay'at yig'ilishi bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar ma'lumot uchun qabul qilinsin:

-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat hujjatlari hamda topshiriqlarida tizimni tubdan takomillashtirish yuzasidan belgilab berilgan vazifalarning statistika organlarida 2025-yilning I-yarim yilligidagi ijrosi yakunlari bo'yicha viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari J.Ulashevning hisoboti;

-Boshqarmada raqamli texnologiyalarni joriy etish, kadrlar bilan ishlash va ularning malakasini oshirish, moliya-xo'jalik faoliyatini tashkil etish masalalari yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar holati to'g'risida boshqarma boshlig'i o'rinbosari M.Salimovning hisoboti.

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni ijrosi;

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-75-son qarori ijrosi;

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-81-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosi.

3. Boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari (J.Ulashev, M.Salimov):

-bir hafta muddatda Toshkent shahar statistika boshqarmasi tomonidan statistika sohasida olib borilayotgan tizimli islohotlar bo'yicha tayyorlangan taqdimot asosida asoslantirilgan reja va takliflarni rais kotibiyatiga taqdim etilishini;

-ushbu islohotlarni Samarqand viloyatida ham joriy etish maqsadida Toshkent shahar statistika boshqarmasi (L.Mirsoatov) tomondan tashkil etiladigan o'quv seminarlarida faol ishtirok etish uchun belgilangan tartibda xodimlar yuborilishini;

-bir oy muddatda, Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi (D.Zakirov) bilan birgalikda "Hududlarda statistika tizimini rivojlantirish strategiyasi" loyihasini ishlab chiqib, rais o'rinbosari (Z.Ziyaev) huzurida himoya qilinishi va tasdiqlanishini ta'minlasinlar.

4. Boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari (J.Ulashev, M.Salimov) o'zlariga biriktirilgan tarmoq hamda hududiy statistika bo'limlari boshliqlari bilan birgalikda:

-har bir hisobot shakli bo'yicha hisobotlar qamrovining to'liqligi va sifatini ta'minlash yuzasidan ishlarni yanada kuchaytirsinlar, bunda respondentlarga oldindan tushuntirish ishlarini samarali tashkil etilishini, ularga belgilangan tartibda eslatma va ko'rsatma xatlari yuborilishini ta'minlab, bu borada qat'iy nazorat o'rnatinsinlar;

-hisobot taqdim etmagan respondentlar holatiga hamda hajmlarsiz hisobot taqdim etgan har bir korxona faoliyatiga to'liq aniqlik kiritgan holda, hisobot taqdim etish tartibini buzgan subyektlarga nisbatan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy ishlarni yuritilishini ta'minlasinlar;

-tuman va shahar statistika bo'limlarida statistika faoliyatini tashkil etish, hisobot va ijro intizomini ta'minlash, hujjatlar bilan ishlash, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish masalalari bo'yicha muntazam o'rganishlar o'tkazgan holda, natijalarini tanqidiy muhokama etilishini, kamchiliklarga yo'l qo'ygan mas'ul rahbar va xodimlarga nisbatan qat'iy choralar ko'rilishini ta'minlasinlar;

-korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining oldini olish yuzasidan qabul qilingan qonun hujjatlari hamda qo'mita tomonidan bu borada belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar ijrosini to'liq ta'minlash bo'yicha barcha zarur choralarni ko'rgan holda, mansab vakolatini suiste'mol qilib, korrupsiya holatlariga yo'l qo'ygan rahbar va xodimlarga nisbatan qat'iy jazo choralari ko'rsinlar;

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi "ljro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimini samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5132-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, ijro intizomini yanada mustahkamlash bo'yicha nazoratni yanada kuchaytirsinlar.

5. Murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'yicha bosh mutaxassisi (F.Sattarov) viloyatning Oqdaryo va Payariq tumanlariga "ljro.gov.uz" orqali kelib tushgan hujjatlarni belgilangan tartibda ijro etilishini o'rganib, joriy yilning 10-avgustiga qadar rahbariyatga axborot kiritsin.

6. Boshqarma bosh yuristkonsulti (O. Berdimuradov):

-bir hafta muddatda, tuman va shahar statistika bo'limlarida korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining oldini olish yuzasidan qabul qilingan qonun hujjatlari hamda korrupsiya holatlarining salbiy oqibatlari bo'yicha seminarlar grafigini tasdiqlashga kiritsin;

-tasdiqlangan seminar grafigi asosida tuman va shahar statistika bo'limlarida korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining oldini olish yuzasidan qabul qilingan qonun hujjatlari, korrupsiya holatlarining salbiy oqibatlari bo'yicha profilaktika ishlarini tashkil etsin.

7. Boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari (J.Ulashev, M.Salimov), Statistika ishlarini tashkil etish va ma'lumotlarini tarqatish bo'limi (X.Xazratkulov) boshqarmadan hududlarga birlashtirilgan vakillar bilan birgalikda:

qo'llanilgan ma'muriy choralar ijrosini belgilangan tartibda tashkil etsin;

ko'rsatilgan konsalting xizmatlari bo'yicha tarmoq hamda tuman va shaharlar uchun belgilangan rejani bajartirish choralari ko'rsin.

8. Boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari (J.Ulashev, M.Salimov), Buxgalteriya hisobi va moliyaviy ishlar bo'limi (N.Normatova):

-Milliy statistika qo'mitasining "Biznes uchun statistika" konsalting xizmatini ko'rsatish tartibini tizim xodimlariga tushuntirish bo'yicha ishlarni tashkil etsinlar.

-konsalting xizmati ko'rsatishdan tushgan tushumlarni joriy yilning 1-iyulidan boshlab Milliy statistika qo'mitasi tomonidan qabul qilingan TARTIBGA asosan taqsimlanishini ta'minlasinlar;

9. Boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari (J.Ulashev, M.Salimov) boshqarma va uning hududiy bo'lim boshliqlari:

joylarda tanlanma kuzatuvlarni qat'iy ravishda belgilangan talab va qoidalar asosida, puxta va yuqori saviyada o'tkazilishini tashkil etib, bunda kuzatuvlarga tushgan obyektlarning to'g'ri tanlab olinishi, kuzatuvlarni haqqoniy va sifatli o'tkazilishi, olingan natijalarni atroflicha tahlil etilishi va qo'mitaga o'z vaqtida taqdim etilishi yuzasidan nazoratni yanada kuchaytirsinlar;

barcha tanlanma kuzatuvlarni belgilangan tartib va qoidalar asosida tashkil etmagan rahbar-xodimlar hamda bu borada yetarli nazorat olib bormagan mas'ul rahbarlar va xodimlarga nisbatan qat'iy intizomiy jazo choralari ko'rib borilishini ta'minlasinlar.

10. Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi (N.Abduraimov) 10 kun muddatda viloyat hududidagi yangi xizmat turlarini o'rganib, ularni xizmatlar sohasidagi kuzatilayotgan xizmatlar tarkibiga qo'shish bo'yicha taklif kiritsin.

11. Boshqarma boshlig'i o'rinbosari (J.Ulashev), Qishloq xo'jaligi va atrof-muxit statistikasi bo'limi (X.Karabekov) Qishloq xo'jaligi statistikasi sohasida jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini aniqlash maqsadida dehqonchilik mahsulotlarini (ro'yxat bo'yicha) yetishtirish uchun talab qilinadigan agrotexnik tadbirlar bo'yicha joylarga chiqqan holda texnologik xaritani ishlab chiqsinlar;

12. Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish bo'limi (F.Shukurov), Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit statistikasi bo'limi (X.Karabekov) hamda Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo'limi (U.Sadirov);

aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayonlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish, ro'yxatga olish tizimini ishlab chiqish bo'yicha ishlarni belgilangan tartibda tashkil etish choralari ko'rsinlar.

13. Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo'limi (U.Sadirov):

-xodimlar tomonidan internet tarmog'idan samarali foydalanish va axborot xavfsizligi talablarini bajarish masalalarini shaxsan nazoratga olsin;

-internet tarmog'idan to'g'ri va xavfsiz foydalanish, shaxsiy yozishmalar uchun esa milliy elektron pochta xizmatlari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi bo'yicha tushuntirish ishlarini tashkil etsin;

-ish joyida Internet tarmog'idan shaxsiy maqsadlarda foydalanishni qat'iy man qilish va har bir xodimning internet tarmog'idagi faoliyatini doimiy monitoringini olib borsin;

-xizmatga doir ma'lumotlarni xorijiy elektron pochta xizmatlari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda almashishini man qilish hamda ushbu maqsadda internet tarmog'iga cheklovlar o'rnatilishini tashkil qilsin;

-tizimdagi barcha kompyuterlarni DLP tizimi orqali monitoring qilib borsin hamda xizmat kompyuterida o'ziga taalluqli bo'lmagan (tadbirkorlik subyektiga taalluqli bo'lgan) elektron imzolar aniqlangan rahbar va xodimlar bilan mehnat shartnomasi bekor qilinishi yuzasidan ularni ogohlantirsin.

14. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy ishlar bo'limi (N.Normatova) Milliy statistika qo'mitasi Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi (J.Shirinov) bilan kelishgan holda bir oy muddatda, moliya-xo'jalik faoliyatini 1S dasturida yuritish ishlarini to'liq ta'minlasin.

15. Boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari (J.Ulashev, M.Salimov) Aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi bo'limi (Sh.Hikmatov)

-barcha hududlarda uy xo'jaliklarining tanlanma kuzatuvlarini tashkil etish tartibi va qoidalariga so'zsiz rioya qilinishi, ushbu jarayonlarda to'ldirilgan savolnomalarning sifati va ulardagi ma'lumotlarning haqqoniyligini ta'minlash ishlarini samarali olib borilishi, intervyuerlarning o'z vazifalariga mas'uliyati va mehnat intizomiga rioya qilishlari ustidan nazoratni yanada kuchaytirsinlar;

-tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan uy xo'jaliklariga belgilangan pul mukofotlarini to'g'ri rasmiylashtirilishi, to'liq va o'z vaqtida yetkazilishi bo'yicha qat'iy nazorat olib borsinlar;

-uy xo'jaliklarida tanlanma kuzatuvlarini belgilangan tartib hamda qoidalar asosida tashkil etmagan mutaxassislar (intervyuerlar)ga hamda bu borada yetarli nazorat olib bormagan mas'ul rahbarlar va xodimlarga nisbatan qat'iy intizomiy jazo choralari ko'rib borilishi bo'yicha taklif kiritsinlar.

16. Boshqarma bo'limlari va tuman (shahar) statistika bo'limi boshliqlari har chorak yakuni bilan keyingi oyning 10 sanasigacha bo'limda qilinishi kerak bo'lgan ishlar bo'yicha tuzilgan savolnomaga asosan bajarilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tegishlilik bo'yicha boshqarma boshlig'i o'rinbosarlariga taqdim etsinlar.

17. Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo'limi (U.Sadirov) statistika kuzatuvlarini sifatli hamda shaffof tashkil etilishini ta'minlash maqsadida intervyuerlar tomonidan foydalaniladigan planshet qurilmalariga online GPS navigatorini o'rnatish.

18. Aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi bo'limi (Sh.Hikmatov)

Samarqand shahrida 1 oy mobaynida sinov tariqasida online GPS navigatori o'rnatilgan planshet qurilmalari orqali statistika kuzatuvlarini sifatli hamda shaffof tashkil etilishini ta'minlasin va natijasi bo'yicha rahbariyatga axborot kiritsin.

19. 2025-yilning o'tgan davri mobaynida faoliyatida yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun:

Oqdaryo tumani statistika bo'limida o'tkazilgan o'rganishlar natijasida aniqlangan kamchiliklarni berilgan muddatda bartaraf etmaganligi sababli bo'lim boshlig'i Z.Ergashevga;

Ishtixon tumani statistika bo'limi tomonidan 4-savdo (YaTT) kuzatuvini belgilangan tartibda o'tkazmasdan ma'lumotlarni joyiga chiqmagan holda planshet qurilmasiga kiritilganligi sababli yetakchi mutaxassis A.Xibbimovga nisbatan **hayfsan** intizomiy chorasi berilsin.

20. 2025-yilning o'tgan davri mobaynida erishilgan ijobiy natijalari uchun:

-Pastdarg'om tumani statistika bo'limi boshlig'i (D.Abaev), Narpay tumani statistika bo'limi bosh mutaxassisi (S.Berdimurodov), Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo'limi bosh mutaxassisi (F.Zulfukarov), Aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi bo'limi boshlig'i o'rinbosari (B.Qurbonov)lar

boshqarmaning moliyaviy imkoniyatidan kelib chiqib xo'jalik hisobidan belgilangan tartibda **rag'batlantirilsin**.

21. Murojaatlar bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'yicha bosh mutaxassisi F.Sattarov:

-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari, hukumat qarorlari ijrosini ta'minlash, hujjatlar bilan ishlash, ijro intizomini mustahkamlash, murojaatlar bilan ishlash bo'yicha belgilangan vazifalar va chora-tadbirlarning barcha darajadagi tizim organlarida to'liq va sifatli ijro etilishi yuzasidan nazoratni yanada kuchaytirsin;

-tizim organlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari va hujjatlari, shuningdek, hukumat qarorlarini bajarish bo'yicha ijro intizomi holatini kunlik nazorat qilish orqali, ijro holatini tanqidiy muhokama etib borish ishlarini tashkil etilishi yuzasidan doimiy monitoring olib borsin.

22. Kengash yig'ilishi qarorlari ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Bayon yozuvchi



X. Xazratkulov